

## QIYOSIY PEDAGOGIKANING XALQARO VAZIFALARI

*Kurbanova Nazira*

*Termiz iqtisodiyot va servis universiteti dotsenti*

*Nursaidova Maftuna Olimjon qizi*

*Termiz iqtisodiyot va servis universiteti talabasi*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada qiyosiy pedagogikaning xalqaro vazifalari va ularning jamiyatda dunyo miqyosida tutgan o'рни va rivojlanish tarixi haqida ma'lumotlar keltirib o'tganman.

**Kalit so'zlar:** Yunesko, Yunisef, Mot(XMT), AQSHning "Tinchlik korpusi"

**YUNESKO-** bu tashkilot **Birlashgan Millatlar Tashkilotining** ta'lim, fan, madaniyat masalalarini rivojlantirishga ixtisoslashtirilgan tashkiloti bo'lib, u 1946 yilda tashkil etilgan. 1992 yilgi ma'lumotlarga qaraganda, bu xalqaro tashkilotga jahonning 171 davlati, shu jumladan, O'zbekiston ham a'zodir. Bu tashkilotning qarorgohi Fransiyaning poytaxti Parij shahrida bo'lib, uning oliy boshqaruv organi — Bosh direktordir. Bu xalqaro tashkilotga a'zo bo'lgan mamlakatlarning vakillari 2 yilda bir marta o'zlarining Bosh konferenstiyalariga to'planadilar. Bu anjumanda ular **YUNESKO**ning keyingi 2 yillik faoliyatining dasturini qabul qiladilar. Ushbu dasturni amalga oshirish uchun unga a'zo bo'lgan davlatlar mablag' — byudjet ajratadilar. **YUNESKO** faoliyatida xalqaro hamkorlik, tinchlikni saqlash masalalari asosiy o'rinni egallaydi. Shu tufayli ham uning Nizomida **"Urush haqidagi fikrlar odamlar aqlida paydo bo'ladi, binobarin, urush vasvasasini ularning ongidan chiqarib, tinchilikni himoya qilish g'oyasini tarbiyalamoq kerak"**- deb yozib qo'yilgan.

**YUNESKO** faoliyati o'ta xilma-xil va ko'p qirralidir. Loqaqal uning ta'lim bo'yicha faoliyatiga nazar tashlaylik. Bu boradagi ishlar juda ko'p yo'nalishlarda olib boriladi va bu yo'nalishlar bir-biridan muhimdir. Bu rivojlanayotgan mamlakatlarda savodsizlikni tugatish, jahon ta'limi rivojlanishidagi tendenstiyalarni tahlil qilish va uni ommalashtirish, u yoki bu mamlakatda ta'lim bo'yicha olib borilayotgan siyosatni ham moddiy ham

ma'naviy rag'batlantirish va hokazolar. **YUNESKO** mazmunli ta'limining hamma uchun birday imkoniyat doirasida bo'lishini ta'minlash, uning uzluksizligini qaror toptirish, ta'limni va uning shaklini kelajakda rivojlanishi tamoyillaridan kelib chiqadi. O'qituvchi kadrlar tayyorlash, ularni nazariy-metodik saviyasini muttasil oshirib borish, jahonning ba'zi mamlakatlarida muammo bo'lib hisoblangan xotinqizlarning erkaklar bilan bab-barobar bilim olish haq xuquqlarini ta'minlash, ekologik ta'limni yo'lga qo'yish darslik va dasturlarni takomillashtirish, mamlakatlar o'rtasida ta'lim bo'yicha hamkorlikni butun choralar bilan rivojlantirish va juda ko'p boshqa masalalarni hal etadi. Bu sahovatli faoliyatning barchasi yoshlarga jahon talablari ruhida ta'lim berish ularni xalqaro hamkorlik, o'zaro ishonch, do'stlik, birodarlik ruhida tarbiyalashga qaratilgandir. Fan va texnologiya'ni rivojlantirish borasida **YUNESKO** bir qator davlatlararo dasturni amalga oshirdi. Bu dastur asosan ekologik muhitni yaxshilash, atrof-muhitni muhofaza etish bilan bog'liqdir. Shuningdek, mazkur yunalishda muvofiqlashtirilgan, birgalikdagi ilmiy tadqiqotlarni amalga oshirish, jahon ilmiy markazlari, universitetlar, olimlar hamkorligini rivojlantirish bilan bog'liq muhim ishlar ham yo'lga qo'yiladi. Ma'lumki, hozirgi dunyoda millatlar va xalqlarning madaniy, tarixiy meroslarini, osori atiqalarini asrash, avaylash, kelajak avlodlar uchun uni saqlash, ta'mirlash ishlari katta ahamiyatga molikdir. Bu jahonshumul masalada **YUNESKO** asosiy o'rinni egallaydi. Uning ro'yxatiga jahon tarixiy yodgorliklarining iftixori hisoblangan buyuk Xitoy devori, London Taueri, Klimentjarodagi milliy park va boshqa minglab ob'ektlar kiradi. Shuni alohida qayd etish kerakki, 1993 yildan boshlab O'zbekistonning Samarqand, Buxoro, Xiva, Qo'qon, Toshkent va boshqa joylaridagi ko'plab tarixiy obidalar ana shu ro'yxatga kiritildi. Har yili bu ro'yxatga yangi-yangi tarixiy obidalar, yodgorliklar nomi qayd etib boriladi. **YUNESKO** faoliyati tarkibiga yana xalq og'zaki ijodiyoti, folklor, o'lanlar, aytishuvlar, maqomlar, xalq kuylari, laparlarni saqlash ham kiradi. Adabiyot bo'yicha **YUNESKO**ning roli ayniqsa salmoqlidir. Jahon adabiyoti, uning shox asarlari, adabiy meros ayniqsa u tomondan e'zozlanib, ular to'planadi va jahonning turli tillariga tarjima qilinib, bosmadan chiqariladi va tarqatiladi. Shuningdek, **YUNESKO** ommaviy axborot vositalarini rivojlantirish, jahon ahlini voqea va xodisalardan voqif qilish masalalariga ham faol qatnashib uningrivojlanishiga ko'maklashadi. Bu xalqaro muassasa ko'plab vaqtli matbuot

va nashrlarga xomiylik qiladi. 1992 yil 2 martda O'zbekiston Birlashgan **Millatlar Tashkiloti**ning a'ziligiga qabul qilingach, **BMT**ning barcha tashkilotlariga xaqli a'zo bo'lib kira olish xuquqiga ega bo'ldi. Shu bois Respublikamiz 1993 yil 26 oktyabridan boshlab **YUNESKO**ga a'zo bo'lib kirdi. 17 Yuqoridagi sanalardan ko'rinib turibdiki, O'zbekiston **YUNESKO**ga a'zo bo'lganiga ikki yildan ko'proq vaqt o'tdi. Lekin shu qisqa vaqt ichida ko'p narsa qilib ulgurildi. 1993 yilning yuqorida **YUNESKO**ning ko'zga kuringan ekspertlari yurtimizga tashrif buyurib, Samarqand, Buxoro Xiva shaharlarining tarixiy obidalarini borib ko'rdilar va o'rgandilar. Ularda bu shahardagi betakror tarixiy obidalar katta taassurot qoldirdi. Natija shu bo'ldiki, xalqimizning bu o'chmas yodgorliklari qayta tiklanib, ta'mirlash dasturi tuzildi va bu dasturni 1995 yil boshlaridan amalga oshirishga kirishiladigan bo'ldi

Ma'lumki, **Birlashgan Millatlar Tashkiloti** jahon madaniyati va ma'rifatini rivojlantirish un yilligini (1988- 1997) o'tkazishga qaror qilgan edi. **YUNESKO** ham shu doirada faoliyat ko'rsatib, bir paytlar jahon iqtisodiy, madaniy va ma'rifiy rivojlanishida muhim o'rin tutgan «**Buyuk Ipak Yo'li**» ni kompleks o'rganish dasturini qabul qildi. Bu dasturning maqsadi Sharq bilan G'arb o'rtasidagi bu quruqlikdagi va dengizdagi savdo yo'lini salohiyatini aniqlash, tiklashdan iborat bo'lsa, ikkinchi tomondan bu yo'l Sharq bilan G'arbning madaniy va ma'rifiy hamkorligini ham bir-biriga bog'lovchi muhim ko'priklar ekanligini ochib berish, uni tiklashdan iboratdir. Endilikda bu ulkan tadqiqotlar to'rt asosiy yo'nalishda olib borilmoqda:

1. Ipak yo'li mamlakatlariga kiruvchi xalqlarning tili va yozuvini o'rganish;
2. Karvonsaroylar o'rnini aniqlash va ularni qayta tiklash, pochta aloqalarini yo'lga qo'yish;
3. Kosmik arxeologiya'ni qayta jonlantirish;
4. Jahon turistlar tashkiloti bilan hamkorlikda ipak yo'li bo'ylab turistik yo'nalishlarni ochish va uni xarakatga keltirishdan iboratdir. Hozirgi kunda Respublikada **YUNESKO** ishlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi milliy komissiyasi tashkil etildi. Bu komissiya tarkibiga davlat arboblari, olimlar, taniqli madaniyat hodimlari bilan bir qatorda ta'lim

muassasalarining ham vakillari kiritildi. YUNISEF 1946 yilning 11 dekabrda **Birlashgan Millatlar Tashkiloti** Bosh Assambleyasining birinchi sessiyasidayoq bir ovozdan YUNISEF — BMTning Favqulodda Bolalar Fondi nomi bilan tarkib topdi. 1990 yilda jahonning 71 davlati boshliqlarining oliy darajadagi tarixiy uchrashuvi bo'lib o'tdi. Bu uchrashuvda bolalar manfaatlarini himoya qilish masalasi ham ko'rib chiqildi. Bolalar sog'lig'ini ta'minlash ularga bilim berish, ular huquqlarini himoya qilish, to'q va farovon bolalikni ta'minlash bo'yicha 2000 yilga mo'ljallangan aniq maqsadni ko'zlovchi qaror qabul qilindi. Hozirgacha bu qarorni 153 mamlakatda ma'qullandi. Bizning Respublikamizda ham 6u xalqaro xujjatni amalga oshirish bo'yicha «Milliy harakat dasturi ishlab chiqishga kirishilgan. **MOT (XMT)** Inson huquqlarini hurmat qilish, ularning mehnat turmush sharoitini yaxshilash, ish bilan ta'minlashni yo'lga qo'yish, mehnatkashlarning jamiyat talablariga mos kasb bilan ta'minlash ularning kasb mahoratlarini oshirish, iqtisodiy ahvolini yaxshilash kabi ijtimoiy adolat tamoyillarini amalga oshiruvchi xalqaro tashkilot — **MOT (xalqaro mehnat tashkiloti)** birinchi jahon urushidan keyinroq tashkil etilgan edi. Uning tashkil etilishiga birinchi jahon urushi oqibati, jahonda yuzaga kelgan ijtimoiy-iqtisodiy holat sabab bo'ldi. Chunki jahonda ro'y berayotgan barcha ijtimoiy iqtisodiy islohotlar jahon miqyosida aks etmog'i ko'zda tutilgan edi. **XMT**ning eng noyob xususiyati shundaki, unda ish beruvchilar va mehnatkashlar iqtisodiyotda ijtimoiy hamkorligini shakllantiradi davlat muassasalari bilan teng huquq, tashkilotning siyosati va faoliyati dasturini ishlab chiqishda ishtirok etadi.

1946 yildan **XMT Birlashgan Millatlar Tashkiloti**ni birinchi ixtisoslashtirilgan muassasasiga aylantirildi. 1969 yilda uning faoliyati **Nobel** mukofoti bilan taqdirlash loyiq deb topildi. Unga 1993 yil hisobi bilan 168 mamlakat a'zo bo'ldi. U hozir quyidagi vazifalarni bajarmoqda:

1. Mehnatkashlarning ish sharoitini va turmush tarzini yaxshilash, ishga joylasha olish qobiliyatini oshirish;
2. Xalqaro mehnat normativlarini joriy etish, uni qo'llanishini nazorat qilish;

3. Keng ko'lamda xalqaro texnik-texnologik hamkorlikni yo'lga qo'yish, bu sohada davlatlar o'rtasida faol hamkorlikni va bu siyosatni samarali amalga oshirishni yo'lga qo'yish;

4. Professional tayyorgarlik, hunar-texnika ta'limi umumiy tadqiqotlar, nashriyotlar sohasida faoliyat ko'rsatish va xokazolar. Bundan tashqari XMT o'zining qudratli o'quv markaziga ham ega. Bu o'quv markazi Italiya'ning Turin shahrida bo'lib, yiliga unda 170 mamlakatdan 60 mingga yaqin kishilar mehnatga tayyorlash, ta'lim, tashkil etish kabi eng zamonaviy va dolzarb sohalarda o'qitiladi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Qurbonova O'lmas Usmonovna "Qiyosiy pedagogika" o'quv qo'llanma Buxoro-2013
2. Najmiddinova.G.N. "Qiyosiy pedagogika asoslari" darslik Toshkent-2015
3. M.M. Tilavova, A.T. Gulboyeva dotsent "Qiyosiy pedagogika" Buxoro-2012